



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

## **“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI**

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

### **TAHRIRIYAT KENGASHI**

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## XARAJATLAR HISOBIDA ABC VA BSC TIZIMLARI INTEGRATIV TAHLILI

**Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi**



*doktoranti*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*E-mail: nigoraxon.sultanova.1992@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-6469-6322*

**Annotatsiya.** Maqolada xarajatlarni tasniflash va guruhlashning nazariy asoslari zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy va zamonaviy xarajatlar tizimlari o'zaro solishtirilib, Activity-Based Costing (ABC) va Balanced Scorecard (BSC) tizimlarining mohiyati, farqlari va o'zaro integratsiyasi yoritilgan, korxonada boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

**Kalit so'lar:** xarajatlarni tasniflash, ABC, BSC, tannarx, qiyosiy tahlil, boshqaruv hisobi, boshqaruv tizimi, integratsiyalashgan yondashuv, samaradorlik.

## ИНТЕГРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ABC И BSC С УЧЕТОМ ЗАТРАТ

**Султанова Нигора Хикматходжа кизи**

*докторант*

*Ташкентского государственного*

*экономического университета*

*E-mail: nigoraxon.sultanova.1992@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-6469-6322*

**Аннотация.** В статье проводится комплексный анализ теоретических основ классификации и группировки затрат на основе современных экономических подходов. В исследовании сравниваются традиционные и современные системы затрат, освещаются сущность, различия и взаимная интеграция систем Activity-Based Costing (ABC) и Balanced Scorecard (BSC), обосновано, что они служат повышению эффективности управления предприятием.

**Ключевые слова:** классификация затрат, ABC, BSC, себестоимость, сравнительный анализ, управленческий учет, система управления, интегрированный подход, эффективность.

## INTEGRATIVE ANALYSIS OF ABC AND BSC SYSTEMS BY EXPENDITURE

**Sultanova Nigora Khikmatkhodja kizi**

*Doctoral student of Tashkent State*

*University of Economics*

*E-mail: nigoraxon.sultanova.1992@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-6469-6322*

**Abstract.** The article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of cost classification and grouping based on modern economic approaches. The study compares traditional and modern cost systems, highlights the essence, differences, and mutual integration of the Activity-Based Costing (ABC) and Balanced Scorecard (BSC) systems, and substantiates that they serve to increase the efficiency of enterprise management.

**Keywords:** cost classification, ABC, BSC, cost, comparative analysis, management accounting, management system, integrated approach, efficiency





### **Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda boshqaruv hisobining roli alohida o'rin tutadi, chunki u rahbariyatni to'g'ri, ishonchli va tezkor axborot bilan ta'minlash orqali strategik va operatsion qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish xarajatlarini aniq hisoblash va ularni samarali boshqarish korxonalar moliyaviy natijalarining barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston korxonalarida xarajatlarni hisobga olish tizimi asosan an'anaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ular ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlarni soddalashtirilgan usulda taqsimlashga tayanadi. Bunday yondashuv esa zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlarida, ayniqsa ko'p turdagi mahsulot ishlab chiqariladigan va murakkab texnologik jarayonlarga ega korxonalarda tannarxni noto'g'ri shakllantirish xavfini keltirib chiqaradi. Natijada esa noto'g'ri baholangan tannarx asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari korxonalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xarajatlar hibining zamonaviy tizimlari, xususan (ABC) va (BSC) ushbu muammolarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. ABC tizimi xarajatlarni faoliyat turlari kesimida aniqlash va ularni aniq sabab-oqibat bog'liqligi asosida mahsulotlarga taqsimlash imkonini beradi. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ularni kamaytirish uchun muhim axborot bazasini yaratadi. Boshqa tomondan, BSC tizimi korxonalar strategiyasini moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv korxonalar faoliyatini faqat moliyaviy natijalar bilan cheklab qo'ymasdan, balki mijozlar qoniqishi, ichki biznes jarayonlari samaradorligi hamda innovatsion rivojlanish darajasini ham baholash imkonini beradi. Natijada strategik boshqaruv tizimi yanada takomillashadi va uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam asos yaratiladi. ABC va BSC tizimlarini o'zaro integratsiyalash esa boshqaruv hisobini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Chunki ABC orqali olingan aniq xarajat ma'lumotlari BSC tizimidagi ko'rsatkichlarni shakllantirish va baholashda ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, xarajatlarni boshqarish va strategik boshqaruv o'rtasida uzviy bog'liqlik ta'minlanadi. Bu esa korxonalar faoliyatining barcha darajalarida - operatsion, taktik va strategik bosqichlarda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu tizimlarni amaliyotga joriy etish muayyan muammolar bilan bog'liq. Jumladan, rivojlangan axborot texnologiyalarining yetishmasligi, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash tizimlarining sustligi, shuningdek, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi integratsiyalashgan yondashuvni keng qo'llashga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, korxonalarda an'anaviy fikrlash tarzining ustunligi ham innovatsion boshqaruv usullarini joriy etishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Maqolaning maqsadi shundan iboratki, xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlarining nazariy asoslarini o'rganish, ularning o'zaro integratsiyasini tahlil qilish hamda O'zbekiston korxonalar sharoitida ularni qo'llash imkoniyatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida xarajatlarni tasniflash va guruhlash tizimini takomillashtirish zarurati asoslab beriladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy xarajatlar hisob tizimlarining cheklanganligi nafaqat milliy, balki global miqyosda ham tan olingan muammo hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy boshqaruv hisoboti vositalarini joriy etish korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi**

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar an'anaviy xarajatlarni hisoblash usullarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Tadqiqot natijalarida BSC tizimi strategik boshqaruv vositasi sifatida baholangan bo'lsa, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham u korxonaning uzoq muddatli qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim instrument sifatida talqin qilinadi [1]. Muhim jihatlardan biri shundaki, so'nggi ilmiy tadqiqotlarda ABC tizimining samaradorligi uni boshqa boshqaruv vositalari bilan integratsiyalash darajasiga bog'liqligi qayd etiladi. Xususan, ayrim tadqiqotlar ABC tizimi yuqori sifatli boshqaruv axboroti bilan birgalikda qo'llanganda





samaradorligi sezilarli darajada oshishini ko'rsatadi[10]. Bu holat bizning tadqiqotimizda aniqlangan ABC va BSC tizimlari integratsiyasining ustunligini yana bir bor tasdiqlaydi. ABC bo'yicha olingan natijalar ham xorijiy tadqiqotlar bilan uyg'unlikda ekanligi aniqlandi. Jumladan, 2025-yilda o'tkazilgan tizimli adabiyotlar tahliliga ko'ra, ABC tizimi korxonalarda xarajatlar aniqligini oshirish, operatsion samaradorlikni yaxshilash va raqobatbardosh narx siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi[2; 3]. Ushbu xulosalar mazkur tadqiqot natijalari bilan to'liq mos keladi, chunki bizning tahlilimizda ham ABC tizimi orqali xarajatlar manbalarini aniqlash va ortiqcha xarajatlarni qisqartirish imkoniyati mavjudligi asoslandi. Bundan tashqari, so'nggi yillardagi bibliometrik tahlillar ham ABC tizimining dolzarbligi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2023-2025 yillarda chop etilgan ko'plab ilmiy maqolalar tahliliga ko'ra, ABC va unga asoslangan boshqaruv tizimlari zamonaviy korxonalarda samaradorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan[4; 7]. Bu esa mazkur tadqiqotda ilgari surilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda, xarajatlarni tasniflash va boshqarish tizimini takomillashtirishda integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash zarurligini asoslab berdi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil usulidan keng foydalanildi. Ushbu usul yordamida xarajatlarni tasniflashning an'anaviy va zamonaviy yondashuvlari, xususan ABC va BSC tizimlari o'zaro solishtirildi. Qiyosiy tahlil natijasida mazkur tizimlarning o'xshash va farqli jihatlari, ularning afzalliklari hamda cheklovlari aniqlab berildi. Tadqiqotning metodologik yangiligi shundaki, unda an'anaviy buxgalteriya yondashuvlari zamonaviy boshqaruv hisobining ilg'or usullari bilan uyg'unlashtirildi. Shuningdek, ilmiy umumlashtirish usuli orqali so'nggi yillarda chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, 2020-2025 yillar oralig'ida e'lon qilingan ilmiy maqolalar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar asosida xarajatlarni boshqarishning zamonaviy konseptsialari o'rganildi. Ushbu manbalar asosida mualliflik yondashuvi shakllantirildi va nazariy xulosalar chiqarildi. Bundan tashqari, funksional tahlil usuli yordamida xarajatlarning korxonada faoliyatidagi roli va ularning boshqaruv jarayoniga ta'siri o'rganildi. Ayniqsa, ABC tizimi doirasida xarajatlarning faoliyatlar bilan bog'liqligi tahlil qilindi, xarajat drayverlari aniqlash mexanizmi ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning metodologik yangiligi shundaki, unda an'anaviy buxgalteriya yondashuvlari zamonaviy boshqaruv hisobining ilg'or usullari bilan uyg'unlashtirildi. Xususan, ABC tizimi orqali xarajatlarni aniqlash va BSC tizimi orqali strategik baholash o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Bu esa xarajatlarni boshqarishning integratsiyalashgan modelini shakllantirish imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tanlangan metodlar xarajatlarni tasniflash va guruhlash muammosini har tomonlama va chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Xususan, ABC tizimi orqali xarajatlarni aniqlash va BSC tizimi orqali strategik baholash o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Bu esa xarajatlarni boshqarishning integratsiyalashgan modelini shakllantirish imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

### **Tahlil va natijalar**

Tadqiqot natijasida xarajatlarni tasniflash va guruhlashning nazariy hamda amaliy jihatlari chuqur tahlil qilindi va ularning korxonada boshqaruvdagi ahamiyati asoslab berildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, xarajatlarni to'g'ri tasniflash nafaqat buxgalteriya hisobi aniqligini oshiradi, balki boshqaruv qarorlarining samaradorligini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy xarajatlar tasnifi (doimiy, o'zgaruvchan, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita) korxonada faoliyatining umumiy ko'rsatkichlarini shakllantirishda muhim bo'lsa-da, u zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligini to'liq aks ettira olmaydi.





Ayniqsa, bilvosita xarajatlarning yuqori ulushi mavjud bo‘lgan sharoitda mahsulot tannarxini aniqlashda xatoliklar yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, ABC tizimining qo‘llanilishi xarajatlarni yanada aniqroq taqsimlash imkonini berishi aniqlandi. ABC tizimi xarajatlarni faoliyatlar kesimida aniqlash orqali ularning haqiqiy manbalarini ochib beradi. Natijada, ortiqcha xarajatlar aniqlanadi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati oshadi. Mazkur tadqiqot natijalari xarajatlarni tasniflash va guruhlash tizimini takomillashtirish zarurati nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalarni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy xarajatlar tizimlarining cheklanganligi global miqyosda tan olingan muammo hisoblanadi.

Xususan, so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar an’anaviy xarajatlarni hisoblash usullari bilvosita xarajatlarni noto‘g‘ri taqsimlashga olib kelishini ta’kidlaydi. Natijada mahsulot tannarxi buziladi va boshqaruv qarorlari samaradorligi pasayadi. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari zamonaviy yondashuvlar zarurligini asoslovchi ilmiy qarashlar bilan mos keladi.

ABC bo‘yicha olingan natijalar ham xorijiy tadqiqotlar bilan uyg‘unlikda ekanligi aniqlandi. Jumladan, 2025-yilda o‘tkazilgan tizimli adabiyotlar tahliliga ko‘ra, ABC tizimi korxonalarda xarajatlar aniqligini oshirish, operatsion samaradorlikni yaxshilash va raqobatbardosh narx siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu xulosalar mazkur tadqiqot natijalari bilan to‘liq mos keladi, chunki bizning tahlilimizda ham ABC tizimi orqali xarajatlar manbalarini aniqlash va ortiqcha xarajatlarni qisqartirish imkoniyati mavjudligi asoslandi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy ishlarda ABC tizimi an’anaviy usullarning kamchiliklarini bartaraf etuvchi muhim innovatsion yondashuv sifatida baholanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ABC modeli xarajatlarni faoliyatlar va xarajat drayverlari asosida taqsimlash orqali real resurs iste’molini aks ettiradi. Bu esa bizning natijalarda qayd etilgan “xarajatlarning haqiqiy manbalarini aniqlash” g‘oyasini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, so‘nggi yillardagi bibliometrik tahlillar ham ABC tizimining dolzarbligi saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Xususan, 2023-2025 yillarda chop etilgan yuzlab ilmiy maqolalar tahliliga ko‘ra, ABC va unga asoslangan boshqaruv tizimlari zamonaviy korxonalarda samaradorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida e’tirof etilgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ABC tizimi xarajatlarni faoliyatlar kesimida aniqlash orqali ularning haqiqiy manbalarini ochib beradi. Natijada, ortiqcha xarajatlar aniqlanadi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati oshadi. Bundan tashqari, BSC tizimi orqali xarajatlarni strategik darajada baholash imkoniyati mavjudligi asoslandi. BSC tizimi moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda nomoliyaviy omillarni ham hisobga oladi, bu esa korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ABC va BSC tizimlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash eng samarali yondashuv sifatida namoyon bo‘ldi. Bunda ABC tizimi xarajatlarni aniqlash va taqsimlash funksiyasini bajaradi, BSC esa ushbu xarajatlarning strategik samaradorligini baholaydi. Quyidagi 1-jadvalda mazkur ikki tizimning asosiy jihatlari taqqoslab ko‘rsatilgan:

1-jadval.

**ABC va BSC tizimlarining solishtirma tahlili<sup>37</sup>**

Mezoni	ABC tizimi	BSC tizimi
Asosiy maqsad	Xarajatlarni aniq taqsimlash	Strategik boshqaruvni ta’minlash
Yondashuv	Faoliyatga asoslangan	Ko‘rsatkichlarga asoslangan
Asosiy obyekt	Faoliyat (activity)	Strategik maqsadlar
Natija	Aniq tannarx	Kompleks samaradorlik bahosi
Afzallik	Xarajat manbalarini aniqlaydi	Uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlaydi
Cheklov	Murakkab va vaqt talab qiladi	Subyektiv baholash ehtimoli mavjud

Shu nuqtai nazardan, ABC tizimining qo‘llanilishi xarajatlarni yanada aniqroq taqsimlash imkonini berishi aniqlandi. ABC tizimi xarajatlarni faoliyatlar kesimida aniqlash orqali ularning

<sup>37</sup> Muallif ishlanmasi




haqiqiy manbalarini ochib beradi. Natijada, ortiqcha xarajatlar aniqlanadi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati oshadi. BSC tizimi bilan bog‘liq natijalar ham zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlikda talqin etilishi mumkin. BSC tizimi faqat moliyaviy natijalarni emas, balki nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni ham hisobga olishi bilan ajralib turadi. Bu esa korxonada faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalarida BSC tizimi strategik boshqaruv vositasi sifatida baholangan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham u korxonaning uzoq muddatli qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim instrument sifatida talqin qilinadi. Muhim jihatlardan biri shundaki, so‘nggi ilmiy tadqiqotlarda ABC tizimining samaradorligi uni boshqa boshqaruv vositalari bilan integratsiyalash darajasiga bog‘liqligi qayd etiladi. Xususan, ayrim tadqiqotlar ABC tizimi yuqori sifatli boshqaruv axboroti bilan birgalikda qo‘llanganda samaradorligi sezilarli darajada oshishini ko‘rsatadi. Bu holat bizning tadqiqotimizda aniqlangan ABC va BSC tizimlari integratsiyasining ustunligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim ilmiy manbalarda ABC tizimini joriy etish murakkab va resurs talab qiluvchi jarayon ekanligi ham qayd etiladi. Jumladan, amaliy tadqiqotlar ushbu tizimni qo‘llash uchun katta hajmdagi ma‘lumotlar bazasi va yuqori darajadagi analitik yondashuv talab etilishini ko‘rsatadi. Bu esa tadqiqot natijalarida qayd etilgan cheklovlar bilan mos keladi.

Yana bir muhim jihat – zamonaviy tadqiqotlarda vaqtga asoslangan ABC kabi yangi modifikatsiyalar paydo bo‘layotgani kuzatilmoqda. Ushbu yondashuv xarajatlarni hisoblashni soddalashtirish va aniqligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa sog‘liqni saqlash va xizmat ko‘rsatish sohalarida samarali qo‘llanilmoqda. Bu esa kelgusida xarajatlarni tasniflash tizimini yanada takomillashtirish uchun yangi ilmiy yo‘nalishlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Quyidagi 1-rasmda konseptual model tadqiqot natijalarini umumlashtiradi [5; 6]:


Mazkur model shuni ko‘rsatadiki, xarajatlarni to‘g‘ri tasniflashdan boshlangan jarayon oxir-oqibat korxonaning umumiy samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, xarajatlarni zamonaviy yondashuvlar asosida tasniflash zarur, ABC tizimi operatsion aniqlikni oshiradi, BSC tizimi strategik boshqaruvni kuchaytiradi va ularning integratsiyasi maksimal samaradorlikni ta‘minlaydi.

### **Xulosa**

Xarajatlar hisobining an‘anaviy hamda zamonaviy usullari tahliliga asoslangan tadqiqotimizda xarajatlarni tasniflash va guruhlashning nazariy asoslari kompleks tarzda o‘rganildi hamda ularning korxonada boshqaruvidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi:

1-rasm.

### **Tadqiqot natijalarini umumlashtirilgan konseptual model<sup>38</sup>**



<sup>38</sup> Muallif ishlanmasi





1. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, xarajatlarni to'g'ri tasniflash boshqaruv hisobining markaziy elementi bo'lib, u nafaqat hisob-kitob aniqligini, balki boshqaruv qarorlarining samaradorligini ham belgilab beradi.

2. Tadqiqot doirasida ABC tizimi xarajatlarni aniqlash va taqsimlashda yuqori aniqlikni ta'minlovchi samarali vosita sifatida baholandi. BSC tizimi esa korxonada faoliyatini strategik darajada baholash imkonini beruvchi kompleks boshqaruv instrumenti sifatida e'tirof etildi.

3. Eng muhim xulosalardan biri shundaki, ABC va BSC tizimlarini integratsiyalashgan holda qo'llash korxonada boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunda ABC operatsion darajadagi aniqlikni ta'minlasa, BSC strategik darajadagi baholash va rivojlanishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari xarajatlarni tasniflash va boshqarish tizimini takomillashtirishda zamonaviy, integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish zarurligini asoslab berdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (2021). *The balanced scorecard: Translating strategy into action* (Updated ed.). Harvard Business Review Press.

2. Al-Qudah, A. A., & Jaradat, M. S. (2022). The impact of activity-based costing on firm performance: Evidence from manufacturing companies. *International Journal of Financial Research*, 13(2), 45-58.

3. Nguyen, T. H., & Tran, M. D. (2021). Cost management systems and firm performance: The mediating role of management accounting practices. *Journal of Asian Business and Economic Studies*, 28(3), 189-204.

4. Al-Dhubaibi, A. A. (2023). The role of activity-based costing in improving cost accuracy and decision-making. *Journal of Management Accounting Research*, 35(1), 67-82.

5. Nuhu, N. A., Baird, K., & Bala Appuhami, R. (2020). The association between the use of balanced scorecard and organisational performance. *Journal of Accounting & Organizational Change*, 16(1), 29-54.

6. Zengin, Y., & Ada, E. (2021). Cost management through ABC and its effect on business performance. *Procedia Economics and Finance*, 39, 68-75.

7. Fullerton, R. R., Kennedy, F. A., & Widener, S. K. (2025). Lean manufacturing and management accounting: The role of ABC systems. *Accounting Horizons*, 34(1), 41-60.

8. Maiga, A. S., & Jacobs, F. A. (2022). Balanced scorecard, activity-based costing and organizational performance: An empirical analysis. *Advances in Management Accounting*, 40, 115-140.

